



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 28-fevral

98-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

### **Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarida yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 18-fevraldagi 102-son qarori ijrosi haqida”gi 91-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 27-noyabrda PF-200-son Farmoni ijrosi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarida yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 18-fevraldagi 102-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-fevraldagi 91-6-0-Q/25-sonli qarorlarini ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-fevraldagi 91-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-fevraldagi 102-son qarori bilan:

Shunday tartib joriy etilganki, unga muvofiq 2025-yil 1-apreldan boshlab:

yuridik va jismoniy shaxslarni Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish uchun arizalar Davlat xizmatlari markazi yoki O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — YAIDXP) orqali qabul qilinadi;

Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish haqidagi ariza va unga ilova qilinadigan ma‘lumotlarni davlat xaridlari maxsus axborot portalida ochiq e‘lon qilish, majburiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish hamda mazkur ariza bo‘yicha jamoatchilik vakillari tomonidan fikr-mulohaza qoldirish imkoniyati yaratiladi;

Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish haqidagi arizani ko‘rib chiqish natijalari (qanoatlantirish va rad etish asoslari) davlat xaridlari maxsus axborot portalida ochiq e‘lon qilinadi;

yuridik va jismoniy shaxslarning Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish to‘g‘risidagi arizalarini ko‘rib chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK va zaruratga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik birlashmalari tomonidan xulosalar davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga (keyingi o‘rinlarda — Iqtisodiyot va moliya vazirligi) taqdim etilishi;

bunda Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish yuzasidan yakuniy xulosa Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ariza beruvchiga taqdim etilishi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi Davlat xaridlarida Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti (keyingi o'rinlarda — Ma'muriy reglament) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

yuridik va jismoniy shaxslarni Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish uchun arizalarni Davlat xizmatlari markazi yoki YAIDXP orqali taqdim etishi;

yuridik va jismoniy shaxslarni Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish tartibi;

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 197 — 205-bandlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari — iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**